

**QO'RBOSHILIK HARAKATI HAQIDA AYRIM FIKR-MULOHAZALAR
SHERMUHAMMADBЕК MISOLIDA****Gulyamov Dostonbek Umid o'g'li**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Tarix yo'nalishi 2- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15752499>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan zo'rvonlik bilan tugatilishi natijasida, milliy ozodlik harakatining boshlanib ketishi hamda qo'rboshilarning bolsheviklarga qarshi mardonavor kurashlari, zafarlari, yo'qotishlari va oqibatlari Shermuhammadbek qo'rboshi misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qo'rboshilik harakati, Turk mustaqil jumhuriyati, Shermuhammadbek qo'rboshi, muhojirlik hayoti.

Аннотация: В данной статье описывается начало национально-освободительного движения в результате насильственного прекращения большевиками Туркестанской автономии, а также доблестная борьба, победы, потери и последствия воинов против большевиков, на примере солдат Шермухаммадбек.

Ключевые слова: движение Корбоши, Турецкая независимая республика, Шермухаммадбек Корбоши, иммигрантская жизнь.

Abstract: This article describes the beginning of the national liberation movement as a result of the violent termination of Turkestan autonomy by the Bolsheviks, as well as the valiant struggle, victories, losses and consequences of soldiers against the Bolsheviks, using the example of soldiers Shermuhammadbek.

Key words: Korboshi movement, Turkish Independent Republic, Shermuhammadbek Korboshi, immigrant life.

Xalqimiz 1917-yilda sodir etilgan fevral oktabr o'zgarishlariga katta umidvorlik bilan ko'z tikkandilar. Biroq sovet hokimiyati o'rnatilib, mustahkamlana borgan sayin bolsheviklar dohiylarining ikkiyuzlamachilik, munofiqlik qiyofasi ham ochilib bordi. 1917-yil 26-28-noyabrda Qo'qon shahrida Butunturkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida Turkistonga Muxtoriyat maqomi berildi. O'z oldiga katta maqsadlarni qo'ygan Muxtoriyat faoliyati 1918- yilning fevral oyida Qo'qon shahrida musulmonlarning ommaviy qirg'ini bilan ayanchli ravishda xotima topdi. Atiga 72 kun faoliyat yuritgan Turkiston Muxtoriyati 1918-yil 22-fevralda bolsheviklar tomonidan tayyorlangan "tinchlik shartnomasi"ning imzolanishi bilan tugatildi. Natijada yuz minglab millatparvar, vatanparvar yurt kishilarini qo'lda qurol bilan sovetlar zo'rvonligiga qarshi kurashi boshlanib ketdi.

O'lkada boshlangan Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning dastlabki qaynoq markazlaridan biri Farg'ona vodiysi bo'ldi. Bu harakatga xalq orasidan yetishib chiqqan Katta Ergashlar, Madaminbek, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon, Islom Pahlavon, Rahmonqul, To'ychi, Aliyor qo'rboshi singari taniqli rahnamolar yetakchilik qildilar.

Qo'rboshilik harakatning yorqin namoyondalaridan biri Shermuhammadbek bo'lib, Shermuhammadbek Farg'ona vodiysida sovet rejimiga qarshi milliy ozodlik uchun kurashning ilk bosqichidan boshlab jang maydoniga kirgan. U Katta Ergash (tahminan 1882 – 1921) va Madaminbek (1892 – 1920) kabi qo'rboshilarning o'rinbosari sifatida istiqlolchilarning tan olingan yirik lashkarboshisi edi.[1.250-b.] U Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi Garbuva (Garbobo, Karbobo) qishlog'ida beklar avlodidan bo'lgan Qo'shoqboy Xoji xonadonida 1893 –

yilda tugʻulgan. Qoʻshoqvoy xojining ota avlodlari Qoʻqon xonlari huzurida vazirlik, beklik qilishgan boʻlsa, onasi Oydin ogʻocha Qoshgʻardan kelin boʻlib tushgan edi. Shermuhammadbek dastlabki taʼlimni qishlogʻida keyin Margʻilonda olgan. Shermuhammadbek kamgap va adolatpesha shaxs edi, deb xotirlaydilar Fargʻona qariyalari.[2.4-5-b.]

Madaminbek qizil armiyaga qarshi kurashdan chetlashgach, 1920 – yil erta bahoridan Shermuhammadbek Fargʻonadagi qurolli harakatning Oliy bosh qoʻmondoni qilib saylandi. Anvar Posho (1881 – 1922) va Junaiddxon (1857 – 1938) bilan uch tomonlama hamkorlik oʻrnatildi. Shuningdek Shermuhammadbekning Sharqiy Buxoro qoʻrboshilari Ibrohimbek (1889 – 1932) va Fuzayl Mahdum bilan munosabatlari yaxshi boʻlgan. Afgʻoniston va Turkiya bilan aʼloqalar jonlangan. Oltiariq tumanidagi Gʻoyibota (Gʻaribota) qishlogʻida 1920 – yil 3 – mayda Fargʻona vodiysi qoʻrboshilarining navbatdagi qurultoyi boʻldi. Qurultoyda Turkiston turk mustaqil islom jumhuriyati yoxud Turkiston muvaqqat hukumati tuzuldi. Ushbu qurultoyda Shermuhammadbek hukumat raisi va Fargʻona vodiysidagi istiqlolechilarning oliy bosh qoʻmondoni qilib saylandi.[2.10-b.]. Uning unvoni "Amir lashkarboshi Shermuhammadbek gʻoziy boʻlgan. Shermuhammadbekning ukasi Nurmuhammadbek (taxminan 1899 – 1984) va Oloy vohasidagi qirgʻizlarning yetakchisi Muhiddinbek (taxminan 1877 – 1922) uning oʻrinbosarlari qilib tayinlandi.

Shermuhammadbek va Nurmuhammadbekning xotiralari hamda Zakiy Validiy asarlariga tayanib Boymirza Hayitning yozishicha hukumat tarkibiga quyidagi 6 kishi kiritilgan "Sharmuhammadbek – hukumat raisi va Oliy bosh qomondon; Mullajon Qori – xavfsizlik (ichki ishlar) vaziri; Akbarjon Eshon – shayxulislom; Abdusalom Qori – hukumatning bosh kotibi; Nazirjon -moliya vaziri; Mulla Xoji Niyoz – maxsus ishlar vaziri". Shermuhammadbek tashkil qilgan 12 lar kengashi ham faoliyat koʻrsatgan boʻlib- kengash aʼzolari hukumatni boshqarish va urushni olib borish masalalari yuzasidan oʻz taklif va mulohazalarini ishlab chiqishgan. Bundan tashqari 14 kishidan iborat harbiy idora mahkamasi tuzildi. Bu mahkama oʻz mashvaratlarida harakatning boʻlgʻusi harbiy amaliyotlari bilan bogʻliq boʻlgan barcha masalalarni koʻrib chiqib tegishli qarorlar qabul qilgan. Mulla Umar, Jamol, Abdulaziz va Abdusalom qozilardan iborat qozixona mustaqil sud idorasi mahkamasi ham faoliyat koʻrsatgan. Shuningdek mustaqil sud idorasiga qoʻshimcha ravishda 88 kishilik parlament – Shoʻro ham tashkil qilingan boʻlib. Shoʻro aʼzolari oʻqimishli va nufuzli kishilar hisoblangan. Maʼlumot oʻrnida aytish joizki, Turkiston turk mustaqil islom jumhuriyatining oʻz bayrogʻi boʻlgan. Shermuhammadbek aholidan olgan soliqlar sovet hukumati oladigan soliqlar va tushumlardan bir necha marta kam boʻlib zaruriy ehtiyojlar hamda qurol – yarogʻ sotib olish uchungina aholidan olingan xolos. Qoʻrboshilar va yigitlarning oziq – ovqat taʼminoti esa ular joylashgan qishloqlar ahli zimmasida edi. Qoʻshindagi yigitlarning salomatligiga margʻilonlik Mirzaxon va oltiariqlik Ergash tabib boshchiligidagi xalq tabiblari javobgar boʻlgan. Shuningdek 200 dan ortiq yigit otlarni parvarish qilish bilan maxsus shugʻullanib turgan.[3.328-b.]

Shermuhammadbek qoʻshinida chiniquqan saralangan yigitlardan iborat alohida guruh boʻlgan. Shuningdek uning qoʻshinida zambarak va miltiqlar yasash, oʻq dori ishlab chiqarish hamda qurol yarogʻlarni tuzatish ishiga margʻilonlik miltiqsoz usta Axrorxoʻja Eshon va Shahrixonlik Sulaymon Eshon, hamda Germaniya va Avstriyadan kelgan nemis mutaxasislari rahbarlik qilgan. Shunday qilib, Shermuhammadbek rahbarligi ostida Fargʻona vodiysidagi butun qoʻrboshilar yaxlit kuch boʻlib uyushdi. Oziq-ovqat razvyotkasi natijasida Turkiston ASSR MIK raisi Inomjon Xidiraliyevning taʼkidlashicha 1920 – yil sentabrda, baʼzi maʼlumotlarga qaraganda bosmachilar soni 70000 kishiga yetdi va bu holat kuchli sarosimalik

tug'dirgan. Andijon viloyati davlat arxivi hujjatlarida keltirilishicha, Farg'ona armiya gruppasi inqilobiy harbiy kengashi (PBC) tomonidan 1920 – yil 13 – oktabrda chiqarilgan 55 – buyruqda Farg'ona vodiysidagi 22 ta qo'rboshining boshi uchun katta miqdorda to'lov belgilandi. Xususan Shermuhammadbekni boshi uchun 15000 rubl belgilangan.[3.339-340-b.] Aynan ushbu holat ham sovet rejimi qo'rboshilarga qarshi shafqatsiz qatag'on va terror siyosiy yo'lini tutganligini yaqqol ko'rsatadi. Farg'ona vodiysidagi istiqololchilar 1921 – yanvar-sentabr oylaridagi janglarda 2500 yigitlaridan ajralishdi. Shu yil dekabr oyi boshlarida Shermuhammadbek Oloy vohasi orqali Sharqiy Buxoroga o'tdi va Ibrohimbek qo'rboshi o'rtasida (keyinchalik Anvar Posho bilan ham) muloqotlar bo'lganligini ayrim tarixiy adabiyotlar tasdiqlaydi. Lekin Qorategin bekligida Fuzayl Mahdum bilan ba'zi nizolar ham yuzaga keladi. Natijada Shermuhammadbek 1922 – yil yanvari boshlarida Qorategin bekligidan dovon orqali Farg'ona vodiysiga qaytadi. 1922 – yil dekabr oyida qizillar va istiqololchilar to'qnashuvida 1582 nafar istiqololchilaro'ldirildi. Buning ustiga Farg'ona xalqi 5 yil davom etgan uzluksiz janglardan charchagan edi. Shermuhammadbek boshchiligida tuzilgan Turkiston muvaqqat hukumati 1922 – yil oxirida tarqalib ketishga majbur bo'ldi. Shermuhammadbek 1922 – yil dekabrning so'ngi kunlarida ukasi Muhammadbek va qo'rboshi To'xtasin Maqsud bilan 450 – 500 yigitdan iborat guruhni olib oldin Buxoro respublikasiga 1923 – yil bahorida Afg'onistonga o'tib ketdi. Kobulning rasmiy hukumati sovet Rossiyasi tazyiqi bilan Shermuhammadbek va uning ukasi Nurmuhammadbekka noxush munosabatda bo'lgan. 1927 – yili Kobulda aka uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek farg'ona vodiysidagi istiqololchilik harakati to'g'risidagi o'z xotiralarini andijonlik kotib Abdulxay Maxdumga aytib turib yozdiradi. Keyinchalik bularning bir qismi R. Shamsuddinov tomonidan O'zbekiston matbuotida ham e'lon qilindi. Shamsuddinov yozishicha "... Afg'onistonda Omonullaxon, so'ngra Nodirxon podsholik qilgan davrda Afg'oniston hukumati sho'rolar bilan a'loqani uzmaslik siyosatini olib borardi. Har holda bu hukumat Shermuhammadbekka bir ming afg'oni oylik berib turdi. Yer ham berdi. Shermuhammadbek keyin bu yerlarni hukumatga qaytargan.[4.132-133-b.]

Shermuhammadbek muhojirlikda ham Turkiston mustaqilligi uchun kurash g'oyasidan voz kechmadi. U Afg'onistondan kichik qo'shin bilan Vaxsh daryosi orqali Sharqiy Buxoroga o'tmoqchi bo'lganida sovet aviatsiyasi yordamida ortga qaytarilgan (1929 -yil 15 – aprel) Shermuhammadbek Afg'onistonda tuzilgan turkistonlik muhojirlarning " Vatanni ozod qilish " (ba'zi manbalarda " faol") yashirin tashkilotining asoschilaridan biri bo'lgan. Kobul hukumati Shermuhammadbekni 2 – jahon urushi davrida 2 yilga (1943 – 1945) qamoqda ushlab turgan. Ozodlikka chiqqach Hindiston, so'ngra Pokistonning Peshovar (1951 – 1955) va Turkiyaning Adana (1955 -yildan umrining oxirigacha) yashagan. 1951 – yili Afg'onistondagi ota yurtlik Turkistonlik muhojirlar qon – qardosh Turkiyadan boshpana oldilar. Shermuhammadbek va ukasi Nurmuhammadbeklar bunda bosh – qosh bo'ldilar. Ular Pokistonning Peshovar shahrida turib vatandoshlarni Turkiyaga kuzatdilar. Jami 1111 kishi Turkiyaga jo'natildi. Shermuhammadbek vaqtincha Peshovarda Nurmuhammadbek Karachida yashagan. Ular Sharqiy Turkistondan ham ko'plab vatandoshlarni Turkiyaga jo'natish bilan mashhur bo'ldilar. Shermuhammadbek oilasi haqida ma'lumot biroz kamroq. U Kobulda yashay boshlagan kezlarda 1924 – yili Andijondan Kobulga borib qolgan Zulfiniso ismli qizga uylandi. Ulardan Davronbek, Jahongir, Saodatxon, Xosiyatxonlar dunyoga keladi. To'ng'ich o'g'li Davronbek hozir Nyu – Yorkda Saodatxon Turkiyaning Adana shahrida istiqomat qilishyapti (2008- yil ma'lumotlariga ko'ra). Jahongir bilan Xosiyatxonlar Shermuhammadbek Kobuldaligida vafot etishgan. Ayoli Zufiniso 1972 – yil Adanada vafot etgan. Shermuhammadbekning o'zi 1970 – yil 10 – martda

vafot etadi.[4.144-b.]

Turkiya hukumatidan dunyoning boshqa joylarida yashayotgan vatandoshlardan jamoat va ilm arboblari taziylar keldi. Bu qahramon sharafiga atalgan marsiyalar radio to'liqlari orqali bir necha kun berib turildi. Uning tobuti butun Adana shahri bo'ylab Turkiya va Turkiston muhtoriyati bayroqlari va mungli musiqa sadolari ostida qabristonga eltib qo'yildi. Sovet rejimi davrida Shermhammadbek "Ko'rshermat " (janglarning birida ko'ziga o'q tekkan edi) deb taqirlangan va uning faoliyati soxtalashtirilgan. Keyinchalik uning serqirra faoliyati to'g'risida Turkiya, O'zbekiston, Italiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda kitoblar yozildi. O'zbek haykaltaroshi Abdumalik Ubaydullayev Shermhammadbekning haykalini yaratdi.

Shunday qilib quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Markaziy Osiyodagi ilk demokratik respublika bo'lgan Turkiston Muxtoriyati garchi tez tugatilgan bo'lsa ham Shermhammadbek tuzgan Turk mustaqil jumhuriyati sovetlarga anchayin qattiq qarshilik ko'satib tura oldi. Jumhuriyatning o'z ramzlari, qonunlari va hatto Shermhammadbek joriy etgan pul birligi va qo'shini bo'lganligi e'tiborga molikdir. Shermhammadbekning dushmanlari ham unga baho berishda bor haqiqatni aytishga majbur bo'lganlar. Bunga sovet harbiy sarkardasi Zinovyevning " Urush harakatiga qurolsiz harbiy san'atdan bexabar qo'rboshilarni tezda yo'q qilinmayotgani bilan ayblamoqdalar Shermhammad harbiy san'atini, qo'shin yigitlarini chapdast, tez, och bo'ridek tashlanishlarini ular bilan jang qilayotganlarga biladi. " degan so'zlari ham misol bo'ladi. Istiqlool sharofati bilan Shermhammadbek kabi ajdodlarimiz haqida haqqoniy ma'lumotlarni olishga muvoffaq bo'ldik.

REFERENCES

1. Mansurxo'ja Xo'jayev "Shermhammadbek qo'rboshi" "Sharq". T. 2008.
2. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova " O'zbekiston tarixi " Iqtisod Moliya. T. 2016.
3. Qahramon Rajabov. "Shermhammadbek" risola AbuMatbuot AbuMatbuot-Konsalt. T. 2011.
4. Qahramon Rajabov "Turkiston Qo'rboshilari ". Fan.2022.